**Annotatsiya:** Cheklangan resurslar sharoitida ulardan samarali foydalanish har qanday sohada ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida ham juda muhim hisoblanadi. Shu bois maqlolada samaradorlikka erishishda innovatsiyalarni qo'llash fermer xo'jaliklarining mavjud resurslardan foydalanish ko'rsatkichlari o'rganilgan Samarqand viloyatida kartoshka ishlab chiqarish uchun foydalaniildigan yer maydonlari hamda hosildorlikning dinamik tahlili qilingan. Bundan tashqari Tayloq tumani-dagi 93 ta yangi innovatsion urug'larni sotib olgan va sotib olmagan fermer xo'jaliklaridan so'rovnama olinib korrelyatsiya tahlili o'tkazilgan. Tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki, innovatsion urug'lidan foydalangan fermer xo'jaliklari foydalanma-ganlarga qaraganda ko'proq foydaga erishgan.

**Kalit so'zlar:** Qishloq xo'jaligi, innovatsion texnologiyalar, samaradorlik, foya fermer xo'jaliklari, resurslar hosildorlik ko'rsatkichi.

**Abstract:** In conditions of limited resources, their effective use is very important in any field, especially agriculture. Therefore, in the article, the use of innovations in the achievement of efficiency, indicators of the use of available resources by farms, and a dynamic analysis of the land area used for potato production and productivity in the Samarkand region were studied. In addition, a correlation analysis was conducted by collecting questionnaires from 93 farms in Tayloq district that bought and did not buy new innovative seeds. The results of the analysis showed that the farms that used the innovative seed made more profit than those that did not.

**Key words:** Agriculture, innovative technologies, efficiency, profit farms, resource productivity indicator.

**Аннотация:** В условиях ограниченности ресурсов очень важно их эффективное использование в любой сфере, особенно в сфере сельского хозяйства. Поэтому в статье использованы инновации в достижении эффективности, показателей использования имеющихся ресурсов хозяйств Самаркандской области, динамический анализ площа-ди земель, используемых под производство картофеля, и урожайности. Кроме того, был проведен корреляци-онный анализ путем сбора анкет 93 хозяйств, купивших и не купивших новые инновационные семена Тайлекского района. Результаты анализа показали, что хозяйства, использовавшие инновационные семена, получили больше прибыли, чем те, которые этого не сделали.

**Ключевые слова:** Сельское хозяйство, инновационные технологии, эффективность, прибыльные хозяйства, пока-затель ресурсоотдачи.

## KIRISH

Ta'kidlash joizki, agar qishloq xo'jaligimiz ishlab chiqaruvchilarining tashkili huquqiy asoslari tubdan isloh qilinmasa o'sib borayotgan aholi jon boshiga yetarli qishloq xo'jaligi mahsulotlari miqdorini ta'minlash hamda qishloq xo'jaligi oziq-ovqat bozorida import ulushining ortib borishi bilan bog'liq muammolar ko'payib bora-veradi. Bunday muammolarni oldini olish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish hamda amaliyatga joriy etish talab etiladi. Darhaqiqat, mustaqillikning dastlabki yillarda fermerlar aggressiv iqtisodiy muhitda yashashga va ishlashga majbur bo'lishdi, bunda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan ortiqcha mahsulotning fermerlar ixtiyo-riga qoldirilmasligi, ortiqcha mahsulotlarni sanoat tarmoqlariga o'tkazib yuborilishligi, qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarini yuqori narxlarda xizmatlar va tovarlar bilan ta'minlash va boshqa tomondan oziq-ovqat zan-jiridagi sheriklar foydasiga ishlash jumladan, mahsulotni qayta ishlash, saqlash va savdo tarmoqlariga kapi-talning asosiy qismini o'tib ketishi. Bunday sharoitda qishloq xo'jaligi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlay olmasdi.



Yuqoridagilardan kelib chiqib, “O’zbekiston Respublikasi qishloq xo’jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo’ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi prezidentining 26.02.2021-yildagi PQ-5009-son qarori<sup>1</sup> hamda “Qishloq xo’jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko’rsatishni yanada rivojlantirish to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.02.2021-yildagi PF-6159-son<sup>2</sup> Farmonlarini ishlab chiqilishi qishloq xo’jaligining ko’plab masalalarga institutsional yechim bo’ldi.

Jahonda ro’y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar hamda mamlakatlararo integratsiya sharoitida mamlakatimizda qisqa vaqt ichida qishloq xo’jaligi tarmog’i yangi innovatsion rivojlanish yo’liga o’tishi zarur<sup>3</sup>. Bu yo’l orqali zamonaviy texnik-tehnologik rivojlanish bilan birga qishloq xo’jaligi ishlab chiqaruvchilarining mavqeini oshirish imkoniyati paydo bo’ladi.


Ushbu tadqiqotda fermer xo’jaliklarining kartoshka ishlab chiqarishda yangi urug’lik navlaridan foydalanishlari ularning daromadlariga tasirini tahlil qiladi. Bunda tadqiqotchi bir nechta savollarni ilgari suradi.

Adabiyotlar sharhi. Ko’pgina iqtisodiy adabiyotlarda birinchilardan bo’lib innovatsion jarayonlarning ta’rifini, turlarini va umuman innovatsion faoliyat nazariyasiga muhim hissa qo’shgan olim sifatida avstraliyalik iqtisodchi olim Yozef Shumpeter ni ta’kidlab o’tishadi. Bu vaqtarda innovatsiya haqida fikr yuritilmagan, ammo iqtisodiyotni rivojlantirishda “samarali usul”, “yangilik”, “ta’sir”, “qo’llash” kabi tushunchalardan foydalaniilgan.

Innovatsion faoliyatni tavsflovchi ko’plab tushunchalar mavjud: innovatsiya, innovatsion jarayon, innovatsion tsikl, innovatsion hayot tsikli, innovatsion faoliyatning o’zi, innovatsion muhit<sup>4</sup>. Bundan tashqari, bir xil atama ko’pincha boshqacha talqin qilinadi. Shuning uchun ishda foydalaniilagan innovatsion faoliyat sohasidagi atama va ta’riflarga aniqlik kiritish hamda ularning mohiyati va qishloq xo’jaligidagi rolini aniqlash zarur. Terminologiyani tahlil qilish natijasi qishloq xo’jaligida innovatsion faoliyat sohasida qo’llaniladigan atamalar lug’ati doirasida taqdim etilgan bo’lib, biz innovatsion faoliyat elementlarining mohiyatini batafsilroq ko’rib chiqamiz.

Avvalo, “qishloq xo’jaligi innovatsiyasi” atamasini alohida ta’kidlashimiz kerak.

Qishloq xo’jaligi innovatsiyasi – bu bozorda sotiladigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliy faoliyatda yoki ijtimoiy xizmatlarga yangi yondashuvda qo’llaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon ko’rinishidagi innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi bo’lib, unga bevosita ta’sir qiladi (yoki bilvosita, uning doirasida texnologik zanjir) ishtirokchilari odamlar, ishlab chiqarish vositalari (mashinalar, asbob-uskunalar, asboblar va boshqalar) va biologik muhitning tarkibiy qismi (hayvonlar, o’simliklar) bo’lgan jarayonlar, ularning tabiiy muhitda inson ishtirokisiz mavjudligi mumkin emas yoki, ehtimol, faqat asosiy funksional xususiyatlarni yo’qotish bilan ifodalanadi.



**1-chizma:** Innovatsion faoliyatning tabiatni, ko’lami va qishloq xo’jaligiga ta’sir qilish usullariga ko’ra farqi.

Manba: Adabiyotlar tahlili asosida muallif ishlanmasi

## METODOLOGIYA VA MATERIALLAR

Tadqiqot obyekti – Samarqand viloyati Toyloq tumani fermer xo’jaliklari. Tadqiqotda statistik ma’lumotlardan foydalaniilgan. Tayloq tumanidagi 93 ta fermer xo’jaliklaridan so’rovnomalar olingan. Fermer xo’jalikla-


- 1 “O’zbekiston Respublikasi qishloq xo’jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo’ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”
- 2 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.02.2021-yildagi PQ-5009-son qarori hamda “Qishloq xo’jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko’rsatishni yanada rivojlantirish to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.02.2021-yildagi PF-6159-son Farmoni
- 3 Ismoilov A. I. (2022). FERMER XO’JALIKLARIDA SABZAVOT MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIM-LARI. Academic research in educational sciences, (Conference), 118–117.
- 4 Инновационная деятельность в аграрном секторе экономики России / Под ред. И.Г. Ушачева [и др.]. –М.: КолосС, 2007. – 636 с. Концепция развития инновационной деятельности в АПК России. – Саратов: СГАУ им. Н.И. Вавилова, 2009. – 50 с. Федоренко В.Ф., Буклагин Д.С., Кузьмин В.Н., Аронов Э.Л. и др. Методика освоения и распространение инновационных раз- работок в инженерно-технической сфере (проект): Рукопись. – ФГНУ “Росинформагротех”, 2005. – 73 с. Формирование инновационной инфраструктуры АПК: про- блемы и перспективы / Под ред. И.Г. Ушачева и др. –М.: ООО “Столичная типография”, 2008. – 103 с.



rining innovatsion urug'lik navlaridan foydalangan va foydalanmaganlari o'tasidagi korrelytsiya koeffitsiyenti baholangan.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga nisbatan innovatsion jarayon o'ziga xos xususiyatlarga ega: qishloq xo'jaligi mahsulotlari turlarining ko'pligi va ularni qayta ishslash, yetishtirish va ishlab chiqarish texnologiyasida sezilarli darajada farqlar borligi, texnologiyalarning iqlim sharoitlariga bog'liqligi, ishlab chiqarish vaqtlarining xilma-xilligi, pirovard natijaga erishishda aksariyat hollarda iqtisodiyotning saqlash, qayta ishslash, yetkazib berish tarmoqlari bilan bog'liqligi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining muvaffaqiyatiga tasir ko'rsatmoqda va bu bir necha yillardan beri munozaralarga sabab bo'lib, oziq-ovqat ishlab chiqarish va daromadlarni oshirishning yanada barqaror usullarini talab qilmoqda<sup>5</sup>.



**1-jadval: Samarqand viloyatida kartoshka ishlab chiqarishda foydalanilgan yer maydonlari dinamikasi (ming ga)<sup>6</sup>**

Manba: Samarqand viloyati statistika agintligi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, Samarqand viloyatida kartoshka ishlab chiqarish uchun sarflangan umumiylar maydoni 2020-yilga nisbatan 2022-yilda 0,8 ming ga o'sgan. Ushbu o'sishda fermer xo'jaliklarning hisobiga fermer xo'jaliklarida 2020-yilga nisbatan 2022-yilda 0,8 ming ga o'sgan. Bu yerda tashkilotlarda kartoshka ishlab chiqarish 2020-yilda 0,2 ming ga ekilgan lekin qolgan yillarda pasyish mavjud.

Qishloq xo'jaligi uchun yangi urug'lik navlari, pestitsidlar va o'g'itlarning yangi turlari innovatsiya bo'lib hisoblanadi. Biroq barcha innovatsiyalar ham yuqori samaradorlikka ega bo'lavermaydi. Misol uchun, ba'zi innovatsiyalar kapital mablag'larni tejasa mehnat sarfini ko'paytiradi yoki aksincha mehnat sarfi kamaysa, kapital sarfi ko'payishi mumkin<sup>7</sup>. Shu bois innovatsiyalarni joriy qilishda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, ishlab chiqarish xarajatlarini hamda daromadning o'rtacha miqdori o'rganilishi lozim.

**2-jadval: Toyloq tumani fermer xo'jaliklarini yangi kartoshka urug'larini sotib olgan va olmaganlari dinamik ko'rsatkichlari**

Innovatsiya	Ishtirokchilar soni	Foizda	Umumiylari
Yangi navli urug'larni olmaganlar 0	56	60,22	60,22
Yangi navli urug'larni olganlar 1	37	39,78	100,0
Jami	93	100,0	

Manba: Muallif tomonidan olinagan so'rovnomalar ma'lumotlari

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, biz Tayloq tumanidan jami 93 ta fermer xo'jaliklarida so'rov-

5 Jerop R., Dannenberg P., Owuor G., Mshenga P., Kimurto P., Willkomm M., & Hartmann G. (2018). Factors affecting the adoption of agricultural innovations on underutilized cereals : The case of finger millet among smallholder farmers in Kenya. 13(36), 1888–1900. <https://doi.org/10.5897/AJAR2018.13357>

6 Samarqand viloyati Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

7 Sunding D., & Zilberman D. (1999). The Agricultural Innovation Process : Research and Technology Adoption in a Changing Agricultural Sector in a Changing Agricultural Sector. Department of Agricultural and Resource Economics 207 Giannini Hall UC Berkeley, 47.



nomalar oldik va bunda biz yangi kartoshka urug'lilik materiallarini sotib olmaganlarni (0) raqami bilan sotib olganlarni esa (1) raqami bilan belgiladik.

**3-jadval:** Fermer xo'jaliklaridan olingan so'rovnama savollarining umumi statistikasi

Ko'rsatkichlar	Kuzatuvlar soni	O'rtacha	O'rtacha og'ish	Minimal	Maximal
Innovatsiya	93	.3978495	.4921069	0	1
Jins	93	.9569892	.203981	0	1
Yosh	93	46.52688	10.3447	27	68
Ma'lumot	93	3.354839	.5031458	3	5
Tajriba	93	13.39785	6.445659	2	26
Fermer xo'jaliklarining boshqa daromadi	93	.4301075	.4977744	0	1
Urug'ni sotib olish narxi	93	4174.194	1389.159	3000	5800
Mahsulotni sotish bahosi	93	2977.419	86.13568	2900	3100
Texnika xarajati	93	3417204	4352326	0	3.00e+07
Hosildorlik	93	26225.81	8172.234	8000	50000

Manba: Muallif tomonidan olingan so'rovnama ma'lumotlari

Ushbu jadvalda biz umumi statistika ma'lumotlarini keltirdik ko'rinish turganidek so'rovnomaga ishtirok etgan fermer xo'jaliklarining jami soni 93 tani tashkil qiladi. Jadvalda innovatsiyani qabul qilmagan va qilganlarni (0-1) raqamlari bilan belgilab oldik. Jinsda ayollar va erkaklarni ham fermer xo'jaliklarining boshqa daromadlarini, ya'ni boshqa joydan keladigan daromadlar yo'q yoki borligini (0,1) raqamlari bilan belgilab oldik. Yosh ko'satkichida fermer xo'jaliklari rahbarlarining eng yoshi 27 yosh eng yoshi kattasi 68 yosh ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumotda biz (3-5) raqamlari oralig'ida berdik bu yerda 3 o'rta, 4 o'rta maxsus hamda 5 oliy ma'lumotlilar qilib belgilab oldik. Urug'ni sotib olish narxi 3000 so'm va 5800 so'm tadqiqot so'rovnomasini o'tkazish vaqtidagi 1 kg kartoshkaning kam hosilli eski navlarining o'rtacha bozor bahosi hamda serhosilli yangi navlarining o'rtacha bozor bahosi shunday ko'satkichga ega edi.

**4-jadval:** Tanlangan kuzatuvchilardan olingan so'rovnomasining korelyasiya tahlili

Ko'rsatkichlar	Innovatsiya	Jins	Yosh	Ma'lumot	Tajriba	Boshqa faoliyatdan daromad	Narxi
Innovatsiya	1.0000						
Jins	-0.0442*	1.0000					
	0.6737						
Yosh	-0.1249	0.0830	1.0000				
	0.2329	0.4291					
Ma'lumot	0.0821	-0.0615	-0.0802	1.0000			
	0.4338	0.5582	0.4450				
Tajriba	-0.0402	0.0380	0.5105	0.1403	1.0000		
	0.7023	0.7179	0.0000	0.1797			
Boshqa faoliyatdan daromad	0.5807	-0.1370	-0.0339	0.0784	-0.0166	1.0000	
	0.0000***	0.1904	0.7468	0.4551	0.8742		
Urug'lilik materiallarini sotib olish narxi	0.8674	0.0728	-0.2151	0.1377	-0.1683	0.4501	1.0000
	0.0000***	0.4883	0.0384	0.1882	0.1068	0.0000	
Bozor narxi	0.8297	0.0060	-0.0573	-0.0138	-0.0208	0.6092	0.7581
	0.0000***	0.9546	0.5857	0.8959	0.8428	0.0000	0.0000
Texnika xarajatlari	0.1445	-0.0530	-0.2524	0.2488	0.0378	-0.0421	0.1391
	0.1671	0.6137	0.0146	0.0162	0.7190	0.6888	0.1837
Hosildorlik	0.7720	0.0059	-0.1519	0.0305	-0.0543	0.6038	0.7136
	0.0000***	0.9553	0.1462	0.7714	0.6049	0.0000	0.0000

\*\*\*O'zgaruvchi 1% darajasida muhim ahamiyatga ega.



\*\* O'zgaruvchi 5% darajasida muhim ahamiyatga ega.

\* O'zgaruvchi 10% darajasida muhim

Quyida korelyatsiya tahlilimiz natijalariga qaraydigan bo'lsak, fermer xo'jaliklarining rahbarlarining erkak kishi bo'lishi innovatsiyalarni joriy qilishda 10% li darajada muhimlikka ega ekanligi kuzatilmogda bundan tashqari 1% li darajada muhim ahamiyatga ega bo'lgan to'rtta omilni ko'rshimiz mumkin. Bular fermer xo'jaliklarining boshqa faoliyatdan oladigan daromadlari, urug'ni sotib olish narxi, mahsulotni sotish bahosi hamda hosildorlik. Fermer xo'jaliklarining boshqa faoliyatdan oladigan daromadlari bo'lsa ular innovatsiyalarni qabul qilishga moyilliklari yuqori bo'lishini ko'rshimiz mumkin. Bundan tashqari yana uchta omilda masalan urug'lik materiallarini sotib olish bahosi arzonroq bo'lsa ishtirokchilarimizning ko'pchiligi yangi urug'liklarni sotib olishlari mumkin, aksinacha qimmat narxlarda ular sotib olishdan voz kechadilar. Bu yerda uchinchi 1% li ahamiyatga ega bo'lgan omilimiz mahsulotning sotish bahosi biz shunga amin bo'ldikki agarda mahsulotning sotish bahosi yuqori bo'lsa unda fermerlar ko'proq yangi urug'lik materiallaridan foydalanishar ekan aksincha, past narxlarda fermerlar yangi urug'lanri sotib olmasliklari ma'lum bo'ldi. Jadvalimizdagи oxirgi 1% li ahamiyatga ega bo'lgan omilimiz hosildorlik bunda hosildorligi yuqori bo'lgan navlarni ham fermerlar tomonidan sotib olishga moilliklari statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rshimiz mumkin.

Innovatsiyalarni amaliyatga qo'llashda fermerlar daromadlari, innovatsiyalarni joriy qilish xarajatlari va mahsulotlarning sotish bahosi hamda hosildorlik bilan ijobiy bog'liq bo'lsa-da, biroq risk (tavakkalchilik)dan qochadigan fermerlarda taqlidli ishlab chiqarish oshadi<sup>8</sup>. Ya'ni, ishlab chiqarishda fermer xo'jaliklari kam daromad keltirsa ham ko'proq risk darajasi past bo'lgan yo'nalishlarga yoki boshqa ishlab chiqaruvchilar joriy qilingan innovatsiyalar natijalariga ergashadilar.

**5-jadval:** Fermer xo'jaliklaridan olingen so'rovnama natijalari asosida o'tkazilgan iqtisodiy tahlil ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Jami yer maydoni (ga)	Yetishtirilgan hosil (tonna)	Daromad (mln so'm)	Xarajat (mln so'm)	Foya (+;-) (mln so'm)
Jami fermer xo'jaliklar	169	2496,1	7489890,0	1972765,5	5517124,5
Yangi urug'lik olganlar	81	1256,0	3893600,0	940858,0	2952742,0
Yangi urug'lik olmaganlar	88	1240,1	3596290,0	1031907,5	2564382,5

Jadvalda shuni ko'rsatadiki, yangi navli urug' ekkanlar, eski navli urug' ekkanlardan 7 hektar kam maydonda mahsulot yetishtirgan. Lekin pirovard natija bo'yicha yangi navli urug' ekkanlar ko'proq samaradorlikka erishgani jadvalda aks etgan. Ya'ni, yangi urug' ekkanlar, eski navli urug' ekkanlarga qaraganda 388359,5 mln so'm foya qilgan. Shuningdek, xarajatlar ko'rsatkichi bo'yicha ham yangi navli urug' ekkanlarda ijobiy natijaga erishilgan. Bundan ko'rinish turibdiki, eski navli urug' ekkanlar ko'proq yer maydoniga mahsulot yetishtirgan bo'lsa ham hosildorlik past bo'lgan. Ya'hi, innovatsion urug'dan foydalanish resurslar sarfini ham kamaytirar ekan.

## XULOSA

Tadqiqotchi tomonidan olib borilgan kuzatuvlardan natijasi shuni ko'rsatdiki:

- fermer xo'jaliklarining boshqa faoliyatdan oladigan daromadlari;
- urug'lik materiallarini sotib olish bahosi arzonrligi;
- mahsulotning sotish bahosi yuqoriligi;
- hosildorligi.

Fermer xo'jaliklari tomonidan innovatsion yangi urug'lik materiallarini sotib olishga moyilliklarini oshirishga ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi.

Tadqiqotchilar tomonidan so'rovnama asosida olingen ma'lumotlarning iqtisodiy tahlili qilinganda innovat-

<sup>8</sup> Petridis N. E., Digkas, G., & Anastasakis, L. (2020). Factors affecting innovation and imitation of ICT in the agrifood sector. Annals of Operations Research, 294(1), 501–514. <https://doi.org/10.1007/s10479-018-2834-y>



sion yangi urug'lik materiallarini sotib olgan fermer xo'jaliklarining foyda ko'rsatkichlari sotib olmaganlarga qara-ganda yuqori bo'lib chiqdi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.02.2021-yildagi PQ-5009-ton qarori hamda "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.02.2021-yildagi PF-6159-ton Farmoni.
3. Инновационная деятельность в аграрном секторе экономики России / Под ред. И.Г. Ушачева [и др.]. –М.: Колос С, 2007. – 636 с.
4. Концепция развития инновационной деятельности в АПК России. – Саратов: СГАУ им. Н.И. Вавилова, 2009. – 50 с.
5. Федоренко В.Ф., Буклагин Д.С., Кузьмин В.Н., Аронов Э.Л. и др. Методика освоения и распространение инновационных разработок в инженерно-технической сфере (проект): Рукопись. – ФГНУ "Росинформагротех", 2005. – 73 с.
6. Формирование инновационной инфраструктуры АПК:проблемы и перспективы / Под ред. И.Г. Ушачева и др. –М.: ООО "Сто- личная типография", 2008. – 103 с.
7. Jerop, R., Dannenberg, P., Owuor, G., Mshenga, P., Kimurto, P., Willkomm, M., & Hartmann, G. (2018). Factors affecting the adoption of agricultural innovations on underutilized cereals : The case of finger millet among smallholder farmers in Kenya. 13(36), 1888–1900. <https://doi.org/10.5897/AJAR2018.13357>
8. Samarqand viloyati Statistika agentligi ma'lumotlari asosida mualif ishlansmasi
9. Sunding, D., & Zilberman, D. (1999). The Agricultural Innovation Process : Research and Technology Adoption in a Changing Agricultural Sector in a Changing Agricultural Sector. Department of Agricultural and Resource Economics 207 Giannini Hall UC Berkeley, 47.
10. Petridis, N. E., Digkas, G., & Anastasakis, L. (2020). Factors affecting innovation and imitation of ICT in the agrifood sector. Annals of Operations Research, 294(1), 501–514. <https://doi.org/10.1007/s10479-018-2834-y>
11. Ismoilov A. I. (2022). FERMER XO'JALIKLARIDA SABZAVOT MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. Academic research in educational sciences, (Conference), 118–117.
12. Bunyod I., & Azamat I. (2023). PROSPECTS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE AGRICULTURAL NETWORK. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(8), 136-139.
13. Saidxonov A. S. O. G. L. (2023). MILLIY IQTISODIYOTDA IMPORT O'RNNINI BOSUVCHI, EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISHNING DOLZARB MASALALARI. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 264-269.
14. Shukhrat K., Akmalkhan S. Priority directions for increasing the role of personal business and private entrepreneurship in the national economy //Asian Journal of Research in Business Economics and Management. – 2022. – Т. 12. – №. 12. – С. 1-5.
15. Ilashov B. S. O. G. L. O 'ZBEKISTON QISHLOQ XO 'JALIGI TARMOG 'IDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI VA KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. SamTSAU Conference 1. – С. 189-196.
16. Muratov S. (2022). The Role of Innovations in the Activities of Tomorka Farms in Samarkand Region. American Journal of Agricultural Science, Engineering, and Technology, 6(3), 135-141.
17. Saidmurodov M. T. (2022). INCREASE EMPLOYMENT AND WELFARE OF RURAL DWELLERS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(06), 236-238.
18. Nortoshev E. Z., Qudratov B. T., & Rayimov F. I. O. (2023). O 'ZBEKISTONDA BIOIQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YO 'LLARI VA "BIODEGRADABLE" DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 456-464.
19. Hasanov B. T. (2022). THE ECONOMIC SIGNIFICANCE OF SEED POTATO GROWING IN AGRICULTURE. Academic research in educational sciences, 3(Speical Issue 1), 23-27.
20. Tursunkulovich H. B. (2023). EMPIRICAL ANALYSIS OF POTATO PRODUCTION: IN THE CASE OF SAMARKAND REGION, UZBEKISTAN. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, 5(12), 14-24.



# Yashi

IQTISODIYOT  
Va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Fayziyev Oybek Raximovichning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

O'zbek tili muharriri: Ulug'bek Eshmuradov

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Rus tili muharriri: Abdimo'min Alikulov, i.f.d., professor

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Bobur Ochilov

## 2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodi materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027  
Topshirildi: 10.04.2024-yil. Nashrga ruxsat etildi: 19.04.2024-yil.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali  
O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o’tkazilgan.